

Tarixi



“Elektrotexnika va mexatronika” kafedrası mudiri,

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Baratov Rustam Jalilovich

Tel.: +99871-237-19-65

Email: r.baratov@tiame.uz

Kafedra tarixi

Kafedraga 1934 yil asos solingan va uning daslabki nomi “Avtomatlashtirilgan elektr yuritma” deb atalgan. Uning birinchi mudiri G.E.Baev bo‘lib u 1934-1958 yillarda kafedraga rahbarlik qilgan. 1962 yilga kelib esa kafedra asosida “Elektr yuritma va avtomatika” hamda “Elektrotexnikaning nazariy asoslari” kafedralari tashkil etilgan va uning birinchi mudiri texnika fanlar nomzodi I.A.Reynike keyin esa 1968 yilgacha katta o‘qituvchi A.Shishkin, 1968-1973 yillarda dotsent A.Mamajanov, 1973-1983 yillarda professor S.Majidov, 1983 - 1993 yillarda kafedraga Boshqirdistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, texnika fanlari doktori, professor Madiyar Faxritdinovich Zaripov rahbarlik qilgan. Professor M.F.Zaripov rahbarligida informatsion - o‘lchash texnikasi va avtomatika elementlari sohasida juda katta maktab yaratildi va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanib ular hozirgi kunda ham Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, O‘zbekiston, MDH mamlakatlari, Efiopiya, Togo va boshqa mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda. Professor M.F.Zaripovning bevosita rahbarligida hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlari elementlari sohasida 20 dan ortiq fan doktorlari va 100 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlandi. Ushbu davrda kafedra salohiyati eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilib kafedrada professor S.M.Majidov, dotsentlar Sh.Sh.Zoxidov, N.G.Jabborov, U.Yu.Kazakbaev, Yu.G.Korobko, M.S.Yakubov, O.Turabov, katta o‘qituvchilar A.X.Gaziev, S.X.Alieva, M.N.Zokirova, assistentlar S.F.Amirov, A.Xakimov, K.To‘laxodjaev, N.U.Mallin, R.J.Baratovlar, aspirantlar Bayor Sibiri, Zenebe Tafaye, G.Xachaturyan, A.Denmuxammadiev, D.Kontar lar faoliyat olib borgan.

Kafedraga 1993 - 2004 yillarda professor S.F.Amirov rahbarlik qilgan. 2004 yilga kelib “Elektrotexnikaning nazariy asoslari”, “Avtomatlashtirilgan elektr yuritma” va “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini avtomatlashtirish” kafedralari birlashtirildi va “Suv xo‘jaligi elektrotexnikasi va uni avtomatlashtirish” kafedrası tashkil etildi. Ushbu kafedraga 2004 - 2006 yillarda dotsent R.Gazieva, A.X.Voxidovlar, 2006 - 2008 yillarda esa R.J.Baratov mudirlik qilgan. 2010 yilda «Suv xo‘jaligi elektrotexnikasi va uni avtomatlashtirish» kafedrası asosida «Elektrotexnika va elektr yuritma» kafedrası tashkil etilgan va unga dotsent A.Isakov rahbarlik qilgan. 2012 - 2016 yillarda esa kafedraga t.f.n. A.A.Boqiev rahbarlik qildi. 2016 - 2017 yillarda t.f.n. A.M.Denmuxammadiev mudirlik qildi. 2017 yil iyunidan institutda bir muncha sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar natijasida kafedra institutda yangi tashkil etilgan «Qishloq va suv xo‘jaligini

elektrlashtirish va avtomatlashtirish» fakultetining tarkibiga kiritilgan holda “Elektrotexnika va mexatronika” kafedra shi tashkil qilindi. Kafedraga 2017 yil iyun oyidan boshlab esa t.f.n. R.J.Baratov rahbarlik qilib kelmoqda.

Ushbu qisqa vaqt davomida kafedrada 2017-2018 o’quv yilidan boshlab 5313200 - “Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi” (Elektr va elektron texnikalar) bakalavriat ta’lim yo’nalishi, 5A430502 - Smart (Intellektual) o’lchash tizimlari va asboblari hamda AQSH ning Michigan Shtati Universiteti bilan hamkorlikda qo’shma 5A430503 - Smart sensors and technology mutaxassisliklari bo’yicha magistratura tashkil etilib, joriy o’quv yilidan boshlab birinchi kursga talabalar qabul qilindi. 2021-2022 o’quv yilidan boshlab 6071150-“Mexatronika va robototexnika” yo’nalishi tashkil etildi. Ushbu ta’lim yo’nalishi va mutaxassisliklar o’quv rejasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya universitetlari o’quv rejalari asosida ishlab chiqildi va yangi fanlar bilan boyitildi. Hozirda kafedrada 60722900-“Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi” (Elektr va elektron texnikalar), 6071150-“Mexatronika va robototexnika” bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va 70810502-“Intellektual o’lchash tizimlari va asboblari” mutaxassisligi faoliyat yuritmoqda.

[Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)